

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRZAYEV ZAKIR ABDULLAYEVICH

MAMLUKAT EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA
BOJXONA TO‘LOVLARI VA IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Mirzayev Zakir Abdullayevich

Mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to‘lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish 3

Мирзаев Закир Абдуллаевич

Совершенствование механизма использования таможенных платежей и льгот в повышении экспортного и импортного потенциала страны 31

Mirzaev Zakir Abdullayevich

Improving the mechanism of utilizing customs payments and benefits to enhance the country’s export and import potential 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRZAYEV ZAKIR ABDULLAYEVICH

MAMLUKAT EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA
BOJXONA TO‘LOVLARI VA IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.4.PhD/Iqt3496 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maxmudov Nosir Maxmudovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Alimardonov Ilxom Muzrabshoxovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xusanov Durbek Nishonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc
03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__”_____kuni soat _____dagi
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahar I.Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (998) 99 988 60 31

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahar I.Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.:
(998) 99 988 60 31

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__”_____kuni tarqatildi.
(2025-yil “__”_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning eksport-import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan samarali foydalanish muhim iqtisodiy dastak sifatida namoyon bo'ladi. Bojxona to'lovlarining mantiqan asoslangan darajada belgilanishi ichki bozorni raqobatdan himoya qilish bilan bir qatorda, tashqi bozorlarga chiqishda eksportyorlar uchun rag'batlantiruvchi muhit yaratadi. Shu bilan birga, import uchun berilgan bojxona imtiyozlari ishlab chiqarish sohalarida zamonaviy texnologiyalar, xomashyo va butlovchi qismlarni arzon narxlarda olib kirishni ta'minlab, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bunday dastaklar orqali mamlakatlar tashqi savdo balansini yaxshilash, investitsion muhitni barqarorlashtirish va global qiymat zanjirlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bojxona to'lovlari bo'yicha beriladigan imtiyozlar byudjet daromadlarining qisqa muddatga kamayishiga olib kelishi mumkin. Lekin bojxona imtiyozlari asosida zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda xomashyolarni xarid qilish Yangi innovatsion ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish va ishga tushirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar eksporti hajmini oshirish hamda tarkibi va geografiyasini diversifikatsiyalashga olib keladi. Bu esa istiqbolda valyuta tushumlari va davlat byudjeti daromadlarini oshirish bilan bir qatorda iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyatlarini beradi.

Jahon miqyosida mamlakatlarning eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, avvalo, savdo oqimlarini erkinlashtirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan tarkibiy islohotlar modellarini yaratishga yo'naltirilgan. Ustuvor yo'nalishlar sifatida "smart bojxona" (smart customs) konsepsiyasini joriy etish, raqamli bojxona platformalari orqali savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, tovarlarni klassifikatsiyalash va baholashda sun'iy intellektdan foydalanish hamda bojxona preferensiyalarining makroiqtisodiy ta'sirini baholash bo'yicha kompleks tahlillar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, savdo kelishuvlari doirasida bojxona imtiyozlarini tartibga solish, eksportchilar uchun "yashil yo'lak" (green corridor) tizimini rivojlantirish va kichik biznes subyektlarini tashqi bozorga integratsiyalashuvini yengillashtirishga doir tadqiqotlar ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda eksport va import salohiyatini oshirish, milliy manfaatlarini (shu jumladan, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan) himoya qilishga qaratilgan bojxona to'lovlari va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlar tizimining tashqi savdoni tartibga solish qonunchilik asoslarini xalqaro talablar va standartlarga muvofiqlashtirish orqali takomillashtirish masalalarini tadqiq qilish hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabridagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "... Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan keskin jarayonlar, murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya resurslarining tanqisligining kuchayib borishi, oziq-ovqatga ehtiyoj ortib, moliyaviy resurslarning

qimmatlashayotganligi...”¹ sharoitida mamlakatimiz sanoatning yetakchi tarmoqlarini, ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta ta'minlash orqali mahsulotlar eksporti tarkibi va geografiyasini kengaytirish uchun importga nisbatan qo'llaniladigan bojxona to'lovlari va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlardan foydalanish mexanizmlarini o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashtirgan holda takomillashtirishni taqozo etadi. Bu, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun keng tijorat imkoniyatlarini ochadi va iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan eksport va import salohiyatining oshishiga yordam beradi. Ushbu masalalarning mavjudligi mamlakatimiz eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilishi zarurligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-85-son “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida””gi farmonlari hamda mamlakat eksport va import tarkibini, savdo aloqalarini yanada kengaytirish bo'yicha boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish, ularni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga bir qator xorijiy olimlar va tadqiqotchilarning, jumladan, S.L.Bryu, K.R.Makkonnell, B.Olin, M.E.Porter, E.D.Xalevanskaya, E.V.Vavilova, V.Yu.Grechkov, Yu.M.Rostovskiy, A.P.Kireev, V.G.Draganov, V.G.Svinuxov, E.E.Kostik, V.A.Tixonovich, E.S.Loseva, A.A.Yakovleva, R.R.Axmedzyanov, V.V.Gorshakov, I.V.Sharoshenko, T.V.Dorjokina, K.R.Tatarchenko², shuningdek,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

² С.Л.Брю, К.Р.Макконелл-Экономика: принципы, проблемы и политика// В 2-х томах. Пер. с англ.–М./1991–799 с.; Б.Олин–Межрегиональная и международная торговля// М.: -1993 г. -385 с.; М.Е.Портер–Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. Пер. с англ. – М.: Международные отношения, 1993 г.- 896 с.; Е.Д.Халеванская, Е.В.Вавилова. Всемирная торговая организация и российские интересы// -М.: Магистр, 2009. -367 с.; В.Ю.Гречков, Ю.М.Ростовский. Внешнеэкономическая деятельность: учебник – 3-е изд. перераб. и доп. –М.: Магистр, 2008 -591 с.; А.П.Киреев-Международная экономика// В двух частях, М.: «Международные отношения», 2002 г. -415 с.; В.Г.Драганов. Основы таможенного дела//Учебник,- М.: Экономика, 1998г. -687 с.; В.Г.Свинухов. Таможенно-тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности. // Учебное пособие. М.: Экономист, 2004г., -455 с.; В.В.Горшаков, И.В.Шарошенко. Методика комплексного анализа региональных факторов эффективности администрирования таможенных доходов, Вестник Российской таможенной академии, №4, 2021. С.78

mahalliy iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilardan R.O.Alimov, A.F.Rasulov, A.M.Kadirov, Z.D.Adilova, A.V.Vaxabov, A.S.Jo‘rayev, N.M.Maxmudov, I.A.Rasulova, R.R.Nazarova, S.A.Aripov, N.Sirojiddinov, Sh.A.Toshmatov, S.K.Xudoyqulov, T.N.Pardayev, Z.X.Makkamov, A.A.Shadmankulov, Sh.O‘.Azizov, A.B.Seytmuratov³ ilmiy izlanishlari bag‘ishlangan.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, E.S.Loseva, A.A.Yakovleva, Sh.N.Gatiyatulin, A.V.Orlova, R.R.Axmedzyanov, D.V.Burda kabi xorijiy iqtisodchi olimlar va izlanuvchilarning asarlarida bojxona to‘lovlarini mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishdagi ahamiyati bilan bir qatorda, ularning byudjet daromadlarini to‘ldirishdagi asosiy vazifasini ham nazardan qochirmaslik qayd etib o‘tilgan. Mahalliy olimlarimizdan S.A.Aripov, R.R.Nazarova, T.N.Pardayev, A.A.Shadmankulov, Z.X.Makkamov, Sh.O‘.Azizovlar mamlakat eksport va import salohiyatini oshirish uchun bojxona to‘lovlaridan foydalanish milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlari tamoyillarini qaror toptirishni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligiga e’tibor qaratganlar.

Е.Е.Костик. Развитие таможенного сотрудничества государств-членов ЕвразЭС//Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд.экон.наук. –М.:, 2005 г.,-28 с.; Т.В.Дорожкина, К.Р.Татарченко. Анализ современной системы показателей эффективности таможенных органов, Вестник Калужского университета, №2, 2022, С.14.; Э.А.Тихонович. Таможенно-тарифный компонент национальной внешнеторговой политики// Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд.экон.наук.-Волгоград, 2002 г., -125 с.; Е.С.Лосева. Функции таможенных пошлин и их влияние на доходы в федеральный бюджет на современном этапе развития РФ// Экономика и управление: новые вызовы и перспективы.-2016 г. –Т.: 2010 г. -162-165 с.; А.А.Яковлева, М.Н.Гатиятулин, А.В.Орлова. Таможенный тариф как инструмент регулирования внешнеэкономической деятельности// Форум, серия/ Гуманитарные и экономические науки. - 2019, № 2, -221-224 с.; Р.Р.Ахмедзянов, Д.В.Бурда. Анализ состава, структуры и динамики таможенных платежей при импорте товаров// Вестник академии знаний, 2021 г., № 2(43), -46-50 с.

³ R.O.Olimov, A.F.Rasulov, A.M.Kadirov va b. O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / -T.: Konsauditinform – Nashr, 2006 y., -440 b.; Sh.O‘.Azizov-Bojxona auditi metodologiyasini takomillashtirish. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2019 y., -67 b.; A.A.Shadmankulov, R.I.Xabibov-Bojxona to‘lovlari yig‘iluvchanligi samaradorligini baholashning ayrim jihatlari // j.Moliya va bank ishi, 2024., № 2, 19-25 b.; T.N.Pardayev-Bojxona to‘lovlaridan beriladigan imtiyozlar samaradorligini oshirish yo‘llari // ILM-FAN EJ, -T.: 30.03.2023 y. 3.Д.Адилова–Халқаро бозорларга экспорт махсулотларини йўналтиришнинг маркетинг стратегияси. Иқт.фан.док.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2008 й., -20 б.; А.В.Вахабов-Приоритет направления либерализации внешнеэкономических связей в странах с переходной экономикой// В 2-х т. –Т.: 2002 г.: Т1., 122-131 с.; А.С.Жўраев-Солик-бюджет сиёсатининг бюджет ижросидаги аҳамияти// Бозор, пул ва кредит, 2006., № 1, 17-18 б.; Н.М.Махмудов-Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолиятини ривожлантириш// Бозор, пул ва кредит, 2006 г., № 8, 55 б.; Т.Н.Пардаев, Ф.О.Мухаматкулов, А.Б.Сейтмуратов-Тадбиркорларга боғжона тўловларидан берилаётган имтиёзлар ва уларни қўллашни такомиллаштириш // Ж.Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 2022 г., № 3, 37-44б.; Z.X.Makkamov-Bojxona to‘lovlari qo‘shimcha hisoblanishining kelib chiqish sabablari va ularning oldinin olish choralari, O‘zbekiston bojxona axborotnomasi, №1/2023, б.15.; И.А.Расулова-Пути повышения экспортного потенциала регионов Республики Узбекистан// Автореферат диссертации на ученой степени канд.экон.наук, -Т., 2008 г., -20 с.; Р.Р.Назарова-Управление внешнеэкономической деятельностью в Узбекистане на основе Инновационного развития в условиях глобализации. Автореферат дисс. учен. степени докт.экон.наук.- Т., 2011 г., -16 с.; С.А.Арипов-Ташқи савдони боғжона тўловлари орқали тартибга солишни такомиллаштириш, и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т., 2009 г., 20 б.; Н.Сиражиддинов-Узбекистан: путь к экспортоориентированному развитию.// Мировая экономика и международные отношения. –М.: 2002 г., № 17, 88-92 с.; Ш.Ташматов-Влияние акцизного налога на спрос и предложение// Экономика и финансы, -М., 2007 г., № 12, 69-71 с.; Ф.Ф.Шарипов-Экспорт-импорт операцияларини солиққа тортишни такомиллаштириш масалалари; и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати// Т.: 2008 й., -20 б.; T.N.Pardayev-O‘zbekistonda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. –T. Bojxona instituti bosmaxonasi. 2024. -265 b.; T.N. Pardayev-Bojxona to‘lovlariga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili. O‘zbekiston Bojxona axborotnomasi jurnali.-Toshkent, 2024-y.18-28 b. Maxsus son. ISSN 2181-9815

Sanab o'tilgan olimlarning xalqaro savdoni rivojlantirish faniga qo'shgan salmoqli hissalariga qaramay ularning ilmiy ishlarida mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda, hozirgi kunda jahonda geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning tez o'zgaruvchanligidan kelib chiqqan holatlar va ularning har bir mamlakatning eksport va import salohiyatini oshirishga bo'lgan ta'sirlari inobatga olinmagan. Shu sababli milliy iqtisodiyotning mavjud eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bojxona to'lovlari undirish va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlardan foydalanish mexanizmini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlariidan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;

bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarning mamlakat eksport-import tarkibini muvozanatlashtirishdagi ahamiyati va ularni shakllantirish tamoyillarini o'rganib chiqish;

mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanishning amaldagi holatini tahlil qilish;

mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishning xalqaro tajribalarini o'rganish;

bojxona to'lovlari va imtiyozlari asosida eksport va import salohiyatini oshirishda milliy innovatsion tizimni shakllantirish holatini tahlil qilish;

bojxona to'lovlari va imtiyozlariga doir qonunchilik hujjatlarini xalqaro huquq-me'yorlari asosida takomillashtirishga oid amaliyotdagi muammolarni aniqlash;

eksport va import salohiyatini oshirish istiqbollari belgilashda Jahon savdo tashkiloti (JST)ning asosiy tamoyillarini o'rganish;

bojxona to'lovlari stavkalari va imtiyozlarini JST talablariga muvofiqlashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalangan holda mamlakat tashqi tovar eksporti va importi hajmini oshirishning istiqbollari va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida eksport-import tovarlariga nisbatan qo'llaniladigan bojxona to'lovlari va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish jarayonlarida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzu bo'yicha izlanishlar olib borish jarayonida guruhlash, statistik, korrelyatsion, empirik va qiyosiy tahlil, mantiqiy mushohada va abstrakt fikrlash, konstruktiv hisoblash va ekspert baholash, prognozlash, optimallashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

amaldagi bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im stavkasini pasaytirishning maqbul chegarasi (BHMning 2 baravaridan BHMning 25 foiziga qadar)ni belgilash orqali bojxona to'lovlari stavkalarini Jahon savdo tashkiloti tamoyil va me'yorlariga implementatsiya qilish asosida eksport va import salohiyatining o'sishini rag'batlantirish taklifi asoslangan;

import qilinadigan va mahalliy ishlab chiqariladigan tamaki va alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini bir xil belgilash asosida soliq-boj siyosatini soddalashtirish, soliq adolatini ta'minlash va bozorni to'g'ri segmentlash orqali fiskal siyosatning samaradorligini oshirish, teng raqobat muhitini ta'minlash va ichki bozorda soliq-boj yukining neytralligini saqlash taklifi asoslangan;

mamlakatda analogi ishlab chiqarilmaydigan xorijiy innovatsion asbob-uskunalar va texnologiyalarni import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish orqali mamlakatning JSTga a'zo bo'lgunga qadar davrda milliy korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va texnik jihatdan qurollanib olishlari uchun imkon yaratish taklifi asoslangan;

bojxona to'lovlari va imtiyozlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida O'zbekistonning tashqi tovar eksporti va importi hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bojxona to'lovlari va imtiyozlarini qo'llash mexanizmi sxemasi ishlab chiqildi va undagi muammolar o'rganilib, bartaraf etish va takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan;

mamlakatimizda import mahsulotlar hajmi, undirilgan to'lovlar va berilgan imtiyozlarning o'zgarish tendensiyasidan kelib chiqqan holda, importdan undirilayotgan bojxona to'lovlari hamda import bojxona to'lovlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar 1 birlikka o'zgarganda, import hajmi mos ravishda qariyb 0,6 va 0,4 birlikka o'zgarishi mumkinligi ilmiy asoslangan;

tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo va materiallarning chetga chiqib ketishining oldini olish va eksportda tayyor mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida xomashyo mahsulotlar uchun eksport bojini joriy qilish taklif qilingan;

iqtisodiy VAR (Vector Autoregression) modeli asosida bojxona to'lovlari, bojxona imtiyozlari, yillik o'rtacha bazaviy hisoblash miqdori va inflyatsiya

darajasining ta'sirini ifodalovchi iqtisodiy tashqi tovar eksporti va importi hajmlarini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan;

Bojxona kodeksining 289-moddasiga muvofiq, bojxona to'lovlari turlari hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini bojxona qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona aksiz solig'i deb nomlash ushbu soliqlarni Soliq qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi tomonidan hisoblanishi, undirilishi va davlat byudjetiga o'tkazilishida to'g'ri talqin qilinishida yordam berishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining, bojxona to'lovlarini undirish va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarni takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, mamlakat va xorijiy olimlarning ekspert baholari va ishlanmalaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflarning Bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bojxona to'lovlari va ulardan berilgan imtiyozlardan foydalanish mexanizmining yaxshilanishi, pirovardida mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati berilgan taklif va tavsiyalardan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi va boshqarmalari tomonidan bojxona to'lovlarini undirish va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlar mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

amaldagi bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'im stavkasini pasaytirishning maqbul chegarasi (BHMning 2 baravaridan BHMning 25 foiziga qadar)ni belgilash orqali bojxona to'lovlari stavkalarini Jahon savdo tashkiloti tamoyil va me'yorlariga implementatsiya qilish asosida eksport va import salohiyatining o'sishini rag'batlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-181-sonli qarori va Bojxona qo'mitasining 2024-yil 11-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-85-son Farmoni ijrosi to'g'risida"gi 112-son buyrug'i bilan amaliyotda foydalanish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 10-fevraldagi 3/05-25-00061-sonli ma'lumotnomasi). Bu orqali milliy bojxona qonunchiligi JST talablariga muvofiqlashtirildi hamda eksport va import salohiyatining o'sishiga ko'mak berildi;

import qilinadigan va mahalliy ishlab chiqariladigan tamaki va alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini birxil belgilash asosida soliq-boj

siyosatini soddalashtirish, soliq adolatini ta'minlash va bozorni to'g'ri segmentlash orqali fiskal siyosatning samaradorligini oshirish, teng raqobat muhitini ta'minlash va ichki bozorda soliq-boj yukining neytralligini saqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-85-son Farmonini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 10-fevraldagi 3/05-25-00061-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizga import qilinadigan va ishlab chiqariladigan tamaki mahsulotlari uchun 2026-yil 1-yanvardan, alkohol mahsulotlari uchun esa, 2027-yil 1-yanvardan aksiz solig'i stavkalari birxillashtirilishi belgilangan;

mamlakatda analogi ishlab chiqarilmaydigan xorijiy innovatsion asbob-uskunalar va texnologiyalarni import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish orqali mamlakatning JSTga a'zo bo'lgunga qadar davrda milliy korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va texnik jihatdan qurollanib olishlari uchun imkon yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktyabrdagi "Sanoat ishlab chiqarishida xomashyo uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat bojxona qo'mitasining 2022-yil 17-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-oktyabrdagi PQ-392-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi 246-sonli buyrug'ini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 10-fevraldagi 3/05-25-00061-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda 2024-yilda tashqi savdo aylanmasi hajmi 2023-yilga nisbatan oshib, eksport 26,9 mlrd dollarni (+8,4 %), import esa 38,9 mlrd dollarni (+0,8 %) tashkil etgan;

bojxona to'lovlari va imtiyozlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida O'zbekistonning tashqi tovar eksporti va importi hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari Bojxona qo'mitasida amaliyotda foydalanish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 10-fevraldagi 3/05-25-00061-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yilda bojxona to'lovlarini undirish va imtiyozlar qo'llash mexanizmi maqbullashib, ushbu ko'rsatkichlarning muvofiqligini ta'minlash imkoni yuzaga kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot doirasida olingan natijalar 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Eksport va import salohiyatni oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakat eksport va import salohiyatni oshirishda bojxona to'lovlaridan foydalanishning nazariy asoslari, bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarning mamlakat eksport-import tarkibini muvozanatlashtirishdagi ahamiyati va ularni shakllantirish tamoyillari hamda globalashuv sharoitida mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishning tashkiliy va huquqiy asoslari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Bojxona to'lovlaridan foydalanish davlat byudjetining daromadlar qismini to'ldirish bilan bir qatorda, tovarlarni mamlakatimizga olib kirilishi yoki olib chiqilishini rag'batlantirishi yoki cheklashi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovarlari va ularning xorijiy raqobatchilarini o'xshash tovarlar bilan turli iqtisodiy sharoitlarga qo'yishi, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida mamlakatning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, valyuta-moliya siyosatini olib borilishini ta'minlashi, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining faoliyatini umumdavlat milliy manfaatlariga yo'naltirishi mumkin.


Dunyo olimlarining bojxona to'lovlariga oid turlicha qarashlari mavjud. Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu tushunchalarga milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'z ta'riflarini bildirishgan. Jumladan, T.N.Pardayev **“Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun davlat byudjetining daromadlar qismi uchun undiriladigan to'lovlar bojxona to'lovlari deyiladi”**⁴, deb ta'rif bergan.

Bojxona to'lovlari tarkibiga kiruvchi bojxona boji narx toifalaridan biridir. U tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi tamoyillari va qoidalariga asosan tabaqalashtirilgan, tovar yoki tovar guruhiga nisbatan boj stavkalarini belgilashda alohida yondashuvni, ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarini narxlar bilan muvofiqlashtirishni, tovarlarning iste'mol xususiyatlari ko'rsatkichlari hamda sifatini va boshqa shunga o'xshash xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi⁵.

⁴ T.N.Pardayev. O'zbekistonda bojxona to'lovlari undirish mexanizmini takomillashtirish. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent–2025 y. 14-b.

⁵ Основы таможенного дела. Учебник./ Под общ. ред. В.Г.Драганова. Рос.там.акад. ГТК РФ. -М.: ОАО, Изд. «Экономика», 1998 г., С.282.

Bojxona to'lovlari va imtiyozlarini qo'llash mexanizmi 1-rasmda keltirilgan. (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bojxona to'lovlari va imtiyozlarini qo'llash mexanizmi⁶

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 292-moddasida boj tarifiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Boj tarifi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tizimlashtirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona bojlari stavkalarining jamlanmasidir".

Bojxona to'lovlari tarkibiga kiruvchi qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish), ularni realizatsiya qilish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratishdir⁷.

Soliqlar bilan bojxona to'lovlari o'rtasida o'ziga xos umumiylik bor. Lekin, Shuning bilan birga, ular bir-biridan farq qiladilar. Aksiz solig'i bilan bojxona bojlarining umumiyligi shundaki, ularning ikkalasi uchun ham tortilish obyekti bo'lib tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Ushbu soliqlar soliq va bojxona idoralarda turlicha hisob-kitob qilinadi. Soliq organlarida aksiz solig'i tovarlarning sotilish qiymatidan hisoblansa, bojxona organlarida bojxona qiymatidan hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq idoralarda tovarning qiymati va hisoblangan aksiz solig'i summasi yig'indisidan hisoblansa, bojxona idoralarida esa, tovarning bojxona qiymati, hisoblangan bojxona boji va aksiz soliqlari yig'indisidan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i ham Soliq qo'mitasi, ham Bojxona qo'mitasi tomonidan undirilganligi sababli, qonun hujjatlarini talqin qilishda ba'zi anglashilmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu masalani hal etish maqsadida bizningcha, bojxona organlari tomonidan undirilishi belgilangan aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini bojxona aksiz solig'i va bojxona qo'shilgan qiymat solig'i deb nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni berish tizimini to'g'ri tanlash tashqi savdoning samarali tarkibini ta'minlash, ichki tovar ishlab

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ Н.Н.Шмакова, «ҚҚС – солиқ хизматининг тенгдоши», СБХ, № 32, 2022 йил, 4-бет.

chiqaruvchilarni nosogʻlom xorijiy raqobatdan himoyalash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ragʻbatlantirish, tashqi savdo aylanmasini zarur darajada tartibga solish hamda fiskal vazifalarni toʻgʻri bajarish imkoniyatini beradi⁸.

Ingliz iqtisodchi olimi J.Saks taʼbiri bilan aytganda, hali hech bir mamlakat jahon iqtisodiyotidan ajralgan holda, sogʻlom raqobatga asoslangan iqtisodiyotni yarata olmagan⁹.

M.G.Yenadirovanning fikricha, xalqaro savdodagi tarif preferensiyalari deganda, bojxona chegarasi orqali olib oʻtilayotgan tovarlarning kelib chiqqan mamlakatiga qarab qoʻllaniladigan hamda barcha tovarlar yoki ularning alohida turlariga nisbatan belgilanadigan import va eksport bojxona bojini toʻlash boʻyicha imtiyozlar tushuniladi¹⁰.

Iqtisodchi olim T.N.Pardayev tomonidan bojxona toʻlovlaridan imtiyozlarga shunday taʼrif berilgan: “Bojxona toʻlovlaridan imtiyozlar – import operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxslar uchun qonun yoʻli bilan belgilangan afzalliklar boʻlib, ular tomonidan tovarlarni olib kirish jarayonida bojxona toʻlovlaridan ozod qilish hisoblanadi”.

Mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona toʻlovlari va imtiyozlaridan foydalanish maxanzimini takomillashtirish nafaqat mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga, balki uning tarkibi va geografiyasini ham kengaytiradi, milliy iqtisodiyotda ijobiy tarkibiy oʻzgarishlarga olib keladi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek davlat byudjetining daromadlarining ham oshishiga olib keladi, deb aytishimiz mumkin.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Eksport va import salohiyatni oshirishda bojxona toʻlovlari va imtiyozlaridan foydalanishning amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan boʻlib, unda Oʻzbekistonda eksport va import hajmini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan bojxona siyosati chora-tadbirlarining tahlili, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona toʻlovlari va imtiyozlaridan foydalanish holati tahlili, hududlarda tashqi tovarlar aylanmasi hajmi hamda bojxona toʻlovlarini undirish va imtiyozlar qoʻllash koʻrsatkichlarining amaldagi holati bayon qilingan.

2018–2024-yillar davomida respublikamiz tashqi tovar aylanmasida quyidagi oʻzgarishlar yuz berdi (1-jadval).

Ushbu jadvaldan tashqi tovar aylanmasi hajmi 2018-yildagi 28,23 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda qariyb 54,95 mlrd AQSh dollariga yetganligini koʻrishimiz mumkin.

⁸Т.Н.Пардаев. Боjхона тўловларини қўллашни оптималлаштириш–иқтисодиётни барқарор ривожлантиришнинг муҳим омили. БПК., 5/2018(264), 546.


⁹ Ж.Сакс- На пути к рыночной экономики// М.: «Экономика», 1994г.

¹⁰ М.Г.Енадарова Правовое регулирование льгот по уплате таможенных платежей в Таможенном союзе ЕврАзЭС // Отрасли права, 2015.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi tovar aylanmasi¹¹
(mln AQSh dollarida)

| Ko‘rsatkichlar | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. |
|------------------------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|----------|
| Tashqi savdo aylanmasi | 28 233,0 | 35 890,3 | 33 029,7 | 37 821,5 | 41 496,2 | 54 803,9 | 54 952,0 |
| Eksport | 10 920,7 | 14 023,8 | 13 097,3 | 14 081,1 | 15 275,9 | 19 229,1 | 19 700,0 |
| Import | 17 312,3 | 21 866,5 | 19 932,4 | 23 740,4 | 28 220,3 | 35 574,8 | 35 252,0 |
| Saldo | -6 391,6 | -7 842,7 | -6 835,1 | -9 659,3 | -12 944,4 | -16 345,7 | -15552,0 |

2-rasmdan bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar 2019-yilda eng ko‘p miqdorda berilganligini (6 267,1 mln AQSh dollari) hamda 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,3 martaga kamayganligini va undirilgan bojxona to‘lovlari bilan deyarli tenglashganligini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. Undirilgan bojxona to‘lovlari va berilgan imtiyozlar ko‘rsatkichlari¹²


Bojxona to‘lovlari bo‘yicha 2017–2023-yillarda berilgan imtiyozlarning to‘lov turlari bo‘yicha taqsimotiga ko‘ra, 2017-yilda berilgan imtiyozlar tarkibida import boji 36,9 foizni, aksiz solig‘i 7,9 foizni, bojxona yig‘imlari 0,008 foizni, qo‘shilgan qiymat solig‘i esa 55,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning berilgan imtiyozlar tarkibidagi ulushlari mos ravishda 60,5 foizni, 0,15 foizni, 0,04 foizni hamda 39,3 foizni tashkil etdi.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Berilgan imtiyozlarning mamlakat eksport va import salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatganligi 3-rasmida aks etgan. Ushbu rasmdan 2023-yilda 2017-yilga nisbatan imtiyozlar miqdori 1,3, eksport hajmi qariyb 2, import hajmi esa 3 baravarga oshganligini ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 5-avgustdagi PQ–1169-sonli, 2017-yil 29-sentyabrdagi PQ–3308-sonli, 2018-yil 29-iyundagi PQ–3818-sonli hamda 2019-yil 2-oktyabrdagi PQ–4470-sonli qarorlari asosida bojxona bojlarini tovar pozitsiyalari bo'yicha stavkalari qayta ko'rib chiqildi.



3-rasm. Bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning mamlakat eksport va import ko'rsatkichlariga ta'siri¹³

Unga muvofiq, import bojxona boji stavkasi 2019-yildan yanada pasaytirilgan bo'lsa, 2020-yildan esa bir muncha oshirilgan. Ya'ni, past va o'rta stavkalar qo'llaniladigan TIF TN bo'yicha tovar pozitsiyalari soni mos ravishda 533 va 316 taga kamaytirilgan bo'lsa, yuqori stavka qo'llaniladigan pozitsiyalar soni 504 taga orttirilgan. Bu albatta, 2021-yildan import bojxona bojini undirish ko'lamini oshirib, proteksionistik siyosatning kuchayganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz eksporti tarkibida ishlab chiqarish nisbatan osonroq bo'lgan mahsulotlar hisoblangan oltin, paxta, neft gazlari, tozalangan mis va sabzavotlar kabi eng kam ishlov berishni talab etadigan mahsulotlarning ulushi yuqori darajada saqlanib turibdi. Shuningdek, xomashyo ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Jumladan, 2017–2023-yillar oralig'ida paxta ipi eksporti 428,1 mln AQSh dollardan 1,2 mlrd AQSh dollargacha, ya'ni 2,8 barobarga oshgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining yer, mineral xomashyo va o'simlik resurslarining katta zaxiralari, shuningdek, qayta ishlash sanoatining xomashyo bazasi sifatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay tuproq, iqlim sharoitlarining mavjudligi sifatidagi boshlang'ich iqtisodiy salohiyati uni globallashtirish sharoitida eksport va import salohiyatini oshirgan holda, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga umid bog'laydi. Buning uchun bizning fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy tashkil etuvchisi bo'lgan tashqi savdoni uning boshqa tashkil etuvchilari bilan uzviy bog'liqlikda tartibga solishda qo'llaniladigan bojxona to'lovlaridan foydalanish va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlar mexanizmini mamlakatni real iqtisodiy-ijtimoiy holatidan, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish lozim.

Buning uchun O'zbekiston hududlarida eksport salohiyatini oshirish uchun eksportdagi raqobatbardosh ustunliklarga e'tibor qaratib, hududlar eksportini rivojlantirishda samarali yechimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlillardan kelib chiqqan holda hududlarning eksport salohiyatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif etish mumkin:

paxta tolasini chuqur qayta ishlash uchun o'zimizda ishlab chiqarilmaydigan zamonaviy uskunalarni import qilishda bojxona imtiyozlari qo'llash orqali Qashqadaryo, Buxoro, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida tekstil mahsulotlari eksporti hajmini oshirish;

xomashyo mahsulotlari uchun eksport bojarini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirib, yuqori qo'shilgan qiymatli oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmlarini ko'paytirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Navoiy va boshqa viloyatlar);

bojxona to'lovlari va imtiyozlarini qo'llashga doir milliy qonunchilikni JST talablariga muvofiqlashtirish orqali hududlardagi erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangidan shakllantirilayotgan innovatsion mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar va boshqa turdagi sanoat mahsulotlari eksportini oshirish (Toshkent, Namangan, Jizzax va boshqa viloyatlar).

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, JSTga a'zo bo'lgunga qadar korxonalarimizning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va texnik jihatdan qurollanib olishlari uchun quyida keltirilgan o'xshashi respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar import qilishda vaqtincha bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (2-jadval).

Bizningcha, mamlakatimizga imtiyozli tarzda import qilinadigan innovatsion asbob-uskunalar va texnologiyalar ro'yxatini kengaytirish ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash orqali import o'rnini bosadigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish kengayishi, yurtimizda mavjud arzon va sifatli xomashyo va resurslarni chuqur qayta ishlash orqali katta qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan va sifatli tovarlar eksportini jadallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish natijasida mahsulotlar tannarxi va energiya sarfini kamaytirish hisobiga xalqaro bozorda narx bo'yicha raqobatda yutish imkoniyati yaratish, transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash va iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishga xizmat qiladi.

Import qilishda bojxona boji va QQSdan ozod qilish tavsiya qilinadigan texnologik asbob-uskunalar ro'yxati¹⁴

| Texnologik asbob-uskunalar nomi |
|--|
| G'ildirakli, harakatlanadigan ko'tarma fermalar va portal yuk ortkichlar |
| Minora kranlari |
| To'qimachilik tolalarini transportirovka qilish uchun va boshqa pnevmatik ko'targichlar va konveyrlar |
| Tovarlar yoki materiallar uchun uzluksiz ishlaydigan boshqa kovshli, tasmali, rolikli va boshqa elevator va konveyerlar |
| Pochta jo'natmalarini saralash, taxlash yoki konvertlarga joylash yoki o'rab bog'lash uchun mashinalar, pochta jo'natmalarini ochish, yopish yoki muhrlash uchun mashinalar hamda pochta markalarini yopishtirish yoki hisobdan chiqarish uchun mashinalar |
| Tamaki tayoqchalari (stiklari)ni ishlab chiqarish uchun uskuna |
| O'zgaruvchan tok generatorlari |
| Yuqori haroratli payvandlash uchun mashina va apparatlar |
| Yo'lsiz sharoitlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, elektromexanik transmissiyaga ega yuk ko'tarish quvvati 50 tonnadan yuqori bo'lgan yuk mashinasi (avtomobil-samosval) |

Tadqiqot va tahlillarimiz natijalari asosida bojxona sohasida bojxona to'lovlarini undirish va ular bo'yicha berilayotgan imtiyozlarni qo'llashda muayyan kamchiliklarning mavjud ekanligi aniqlandi hamda ushbu qonunbuzilish holatlarining sodir bo'lish xavfi quyidagicha baholandi:

birinchidan, kam miqdorda bojxona to'lovlarini to'lash maqsadida, tovarlarning bojxona qiymatini paysaytirib ko'rsatilishi –17 foiz;

ikkinchidan, imtiyoz olish maqsadida tovarlarning TIF TN kodlarini imtiyozli tovarlarning kodlariga almashtirib soxta ma'lumot taqdim etilishi –17 foiz;

uchinchidan, bojxona to'lovlaridan qochish uchun tovarlarning miqdorlarini kamaytirilgan holatda hujjat taqdim qilinishi –14 foiz;

to'rtinchidan, import bojidani preferensiya olish maqsadida tovarlarning kelib chiqish mamlakatlarini noto'g'ri ma'lum qilish –13 foiz;

beshinchidan, aksiz solig'ini to'lashdan qochish uchun aksiz markali tovarlarni noto'g'ri deklaratsiyalash –11 foiz va boshqalar.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishning quyidagi chora-tadbirlari ketma-ketligi ishlab chiqildi:

birinchidan, bojxona to'lovlari va imtiyozlarini belgilashda ularning mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siriga ilmiy jihatdan yondashish;

ikkinchidan, bojxona to'lovlari stavkalarini belgilashda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, tarif eslatkatsiyasi printsiplaridan foydalanish;

uchinchidan, bojxona to'lovlaridan imtiyoz va preferensiyalar belgilashda ularning import mahsulotlarini mahalliy lashtirish va eksport salohiyatini oshirishga ta'sirini hisobga olish;

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

to'rtinchidan, imtiyoz va preferensiyalarni hisoblashni JST me'yor va tartib qoidalariga muvofiq amalga oshirishni yo'lga qo'yish;

beshinchidan, bojxona to'lovlari undirish, imtiyoz va preferensiyalar qo'llashda zamonaviy axborot texnologiyalari va iqtisodiy matematik modellash tirish imkoniyatlaridan foydalanishni yanada kengaytirish.

Bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalangan holda mamlakatning eksport va import salohiyatini oshirish uchun yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish milliy innovatsion tizimni takomillashtirish, bojxona to'lovlari va imtiyozlarini qo'llashni JST tamoyillariga moslashtirish hamda 2030-yilgacha bo'lgan istiqbol va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Dissertatsiya ishining **“Eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida eksport va import salohiyatini oshirishda innovatsion tizimni hamda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishning xalqaro tajribasi, eksport va import salohiyatini oshirish istiqbollari belgilashda Jahon savdo tashkiloti (JST)ning asosiy tamoyillaridan foydalanish hamda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalangan holda mamlakat tashqi tovar eksporti va importi hajmini oshirishning istiqbollari va prognoz ko'rsatkichlariga doir ilmiy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai davlat byudjetidir. Ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ilmiy-tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish uchun rivojlangan mamlakatlarda 2017–2021-yillarda ajratilgan mablag'lar, ular yalpi ichki mahsulotlari hajmining 2,9 dan 4,93 foizigachasini tashkil etdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich 0,11 dan 0,15 gachani tashkil etdi. Buning asosiy sabablaridan biri – nodavlat sektor mablag'larini ilmiy tekshirish va innovatsiyalarga yetarli darajada jalb etilmayotganligidadir.

Rivojlangan davlatlarda import bojxona boji stavkalari tarif eskalatsiyasi (foiz hisobi) asosida belgilanadi. Bunda tovarlarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab stavkalarni oshirib borish mexanizmi amal qiladi.

O'tish sharoitidagi mamlakatlar esa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yuqori stavkali import bojlaridan foydalanadi va ular orqali o'z manfaatlarini himoya qilishga, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga harakat qiladilar. Ya'ni, bu sohada ma'lum tashqi savdo siyosatini yuritadi. Eksport bojlari asosan eksport qilinayotgan tovarlarga ularning narxlarini jahon bozorlaridagi narxlarga moslashtirish, ichki bozorni to'ldirish maqsadida qo'llaniladi.

Bilamizki, JSTga a'zo bo'lish yo'lida mamlakatning eksport va import salohiyatining milliy tovarlarimizning raqobatbardoshligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Quyida keltirilgan jadvalda ijtimoiy, iqtisodiy va geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarining eksport hajmining o'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

Ushbu jadvaldan Qozog'iston va Turkmanistonda aholi jon boshiga eksport hajmi O'zbekistondagiga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Eksport ko'rsatkichlari 2023-yilda O'zbekistonda Qozog'istondagiga nisbatan 8 va

Turkmanistondagiga nisbatan 4 baravar kamni tashkil qilgan. 2017-yilga nisbatan o'sish sur'ati Tojikistonda 180,25 foiz va Turkmanistonda 176,11 foizni tashkil etib, O'zbekistondagi 164,97 foizdan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Turkmaniston garchi JSTga a'zo bo'lmasa-da, asosan tabiiy qazilma boyliklar hisoblangan gaz va neft mahsulotlarini xorijga sotish hisobiga eksport hajmi yuqori bo'lib kelmoqda. Ammo, O'zbekistonning eksport miqdori Qozog'istondan keskin ortda qolayotganligi, o'sish sur'atidan esa Tojikistonning o'zib ketishi va Qirg'izistonning deyarli tenglashishi sababini ushbu davlatlarning JSTga a'zo bo'lgan holda, milliy bojxona to'lovlari stavkalarini Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GAAT) me'yorlariga implementatsiya qilinib, bojxona to'lovlari stavkalarni keskin kamaytirganliklarida, deb hisoblaymiz.

3-jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarining eksport hajmi ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi¹⁵

| Davlatlar | JSTga a'zolik | 2017-yilda aholi jon boshiga nisbatan eksport hajmi, AQSh dollarida | 2023-yilda aholi jon boshiga nisbatan eksport hajmi, AQSh dollarida | O'zgarishi, AQSh dollarida (-; +) | O'zgarishi, (%da) |
|--------------|---------------|---|---|-----------------------------------|-------------------|
| Qozog'iston | A'zo | 2 590,03 | 3 946,51 | + 1 356,48 | 152,37 |
| Turkmaniston | A'zo emas | 1 146,15 | 2 018,46 | + 872,31 | 176,11 |
| Qirg'iziston | A'zo | 279,69 | 448,98 | + 169,29 | 160,53 |
| Tojikiston | A'zo | 131,85 | 237,66 | + 105,81 | 180,25 |
| Afg'oniston | A'zo | 20,26 | 21,25 | + 0,99 | 104,91 |
| O'zbekiston | A'zo emas | 316,75 | 522,53 | + 205,78 | 164,97 |

Shu boisdan, mamlakatimiz eksport va import salohiyatini oshirish hamda tashqi savdo balansidagi defitsitni bartaraf etish uchun JSTga a'zo bo'lish va bu yo'lda milliy bojxona to'lovlari qonunchiligini Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GAAT) va boshqa xalqaro me'yorlarga moslashtirish eng maqbul yo'l, deb hisoblanadi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi yo'lida quyidagi taklif va mulohazalar e'tiborga olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

teng raqobat muhitini yaratish maqsadida chetdan keltiriladigan mahsulotlar uchun belgilangan aksiz solig'i stavkalarini mamlakatimiz hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun belgilangan aksiz solig'i stavkalari bilan bixilllashtirish;

YeOIga a'zo davlatlar tajribasiga ko'ra, tashkilotga a'zolik boj tariflarining oshishiga sabab bo'lishidan kelib chiqqan holda, ushbu tashkilotga kirish jarayonini vaqtincha to'xtatib turish;

¹⁵ <https://www.wto.org/english/ma'lumotlari/asosida/muallif/ishlanmasi>.

mamlakatimiz qonunchiligiga ichki monopoliyani cheklaydigan va byurokratiya holatlarini yumshatishga qaratilgan o'zgarishlarni kiritish va shunday tizim yaratish. Bu xorijiy investorlarni jalb qilishga ham yordam beradi;

yurtimizda mavjud 269 ta laboratoriyani xalqaro talab darajasiga yetkazish orqali eksportchilar xarajatlarini qisqartirishga ko'maklashish;

logistika va transport xizmatiga subsidiyalar berish, yuk tashishda dengiz yo'llariga chiqish jarayonlarini tezlashtirish va yo'nalishlar xilma-xilligini ta'minlash;

JST ichki platformasiga zid bo'lgan ichki iqtisodiy va moliyaviy qarorlar chiqarmaslik;

Respublikamizdagi energiya tanqisligi muammosini hal etish uchun energiya resurslari eksportini qisqartirib, "yashil energiya" ishlab chiqarishni kengaytirish, importni oshirish choralarini qo'llash orqali ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash va kengaytirish hisobiga eksport hajmini oshirish.

Shuningdek, bojxona yig'imlari stavkalarini JST qoidolari va talablariga muvofiqlashtirish maqsadida quyidagi bojxona yig'imlari stavkasini pasaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz (4-jadval). Bundan "eksport" bojxona rejimi va "reeksport" bojxona rejimida olib chiqiladigan qayta ishlash mahsulotlari hamda bojxona axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tartibda rasmiylashtiruvdan o'tkazilgan bojxona yuk deklaratsiya (BYuD)lari mustasno hisoblanadi.

4-jadval

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imning amaldagi va taklif etilayotgan stavkalari¹⁶

| Bojxona yig'imi turi | Amaldagi stavka | Taklif etilayotgan stavka |
|---|------------------------|----------------------------------|
| Bojxona rasmiylashtiruvi uchun belgilangan joylardan tashqari va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtlar, dam olish va bayram kunlari (har bir BYuD uchun)dagi bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im | BHMning 2 baravari | BHMning 25 foizi |

Yuqoridagi taklif va tavsiyalarimiz quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi deyishimiz mumkin:

Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatiga erishish. JSTga a'zo bo'lish 166 tadan ortiq mamlakatning bozoriga milliy tovar va xizmatlarning erkin chiqishini taminlaydi;

Nisbatan barqaror tashqi savdo muhiti. JSTga a'zo davlatlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlardan chekinish imkoniyatlari chegaralanganligi sababli, a'zo davlatlar orasida nisbatan barqaror tashqi savdo muhiti qaror topdi. Bu, davlatning

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

tashqi savdo siyosati istiqbollari rejalarini ishlab chiqish uchun qulay bo'lib, uning barqarorligini oshiradi;

Ayrim tovarlarning nopok savdosidan himoyalaniş. JST qoidalari subsidiyalar, dumping kabi tashqi savdoning nopok vositalarini taqiqlab, ulardan himoyalaniş maqsadida tegishli choralar ko'rish imkonini beradi;

Nisbatan barqaror, qulay va oldindan rejalar imkonini beradigan muhit chet el investorlariga O'zbekistonning JSTga a'zoligi ularning O'zbekistonda ishlab chiqarilgan o'z mahsulotlarini to'siqlarsiz jahon bozoriga olib chiqish va o'z faoliyatlari uchun jahon bozorida to'siqlarsiz mahsulot, asbob-uskuna va texnologiyalarni olish imkoniga ega bo'ladilar;

Savdo hajmining va buning oqibatida ishlab chiqarish hajmining hamda bandlikning oshishi. Chet el bozorlariga to'siqlarsiz chiqish imkoniyati O'zbekiston tovar va xizmatlarning eksporti hajmini oshiradi va o'z o'rnida iste'molchilarning jahon bozorida arzon tovarlarga bo'lgan ehtiyojini samaraliroq qondirish imkonini beradi;

Nizolarni hal etishning samarali tizimiga qo'shilish. Biron mamlakat tomonidan JST qoidalari buzilishi oqibatida zarar ko'rgan holda O'zbekiston JSTning nizolarni hal etish organida nizolarni adolatli va samarali hal etish imkoniga ega bo'ladi;

Ko'p taraflama savdo tizimiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish. Bu imkoniyat O'zbekistonning JST doirasida o'tkaziladigan ko'p taraflama savdo muzokaralarida ishtirok etib, o'z manfaatlarini ifoda etish imkoniyatidan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda import qilishda tamaki mahsulotlaridan undirilgan aksiz solig'i miqdori 1,7 barobarga oshgan bo'lsa, alkogol mahsulotlaridan undirilgan aksiz solig'i miqdori 1,3 barobarga kamaygan. Tamaki mahsulotlaridan undiriladigan aksiz solig'i miqdorining oshishiga jahon bozorida bu tovarlar importiga nisbatan narxlarning oshishi sabab bo'lgan bo'lsa, alkogol mahsulotlariga nisbatan kamayishiga esa, aksiz solig'ining qo'llanilishi tabiatidan kelib chiqqan holda, bu mahsulotlar importining cheklanishi sabab bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aksiz solig'ining tashqi savdo aylanmasidagi tartibga solish funksiyasini, ya'ni mamlakat ichki bozorida milliy va xorijiy tovarlar uchun to'liq teng raqobat sharoitini yaratib bermayabdi. Bu ayniqsa, tamaki va alkogol mahsulotlarini aksiz solig'iga tortishda yaqqol ko'rinadi (5-jadval).

Ushbu jadvaldan mamlakatimizga import qilishda va yurtimizda ishlab chiqarishda tamaki va alkogol mahsulotlari uchun turli aksiz solig'i stavkalari belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, import uchun aksiz solig'i stavkasi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan xuddi shunday mahsulotlarga nisbatan ancha yuqori belgilangan. Bu mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashqi bozordan himoya qilish va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan proteksionistik siyosat amal qilayotganligidan dalolat beradi. Bu esa, JSTning tovarlarning dunyo miqyosida erkin harakatlanishi haqidagi tamoyiliga zid hisoblanadi.

Tamaki va alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'ining amaldagi va taklif etilayotgan stavkalari¹⁷

| Mahsulot nomlari | Amaldagi stavka | | Taklif etilayotgan stavka | |
|---|-------------------|-----------------------|---------------------------|-----------------------|
| | Import qilinganda | Ishlab chiqaril-ganda | Import qilinganda | Ishlab chiqaril-ganda |
| Tamaki mahsulotlari, 1 000 dona uchun | 330 000 so'm | 300 000 so'm | 300 000 so'm | |
| Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari, 1 litr uchun | 76 000 so'm | 44 000 so'm | 44 000 so'm | |
| Tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar, 1 litr uchun | 14 000 so'm | 5 000 so'm | 5 000 so'm | |
| Boshqa vinolar, shu jumladan vermut, 1 litr uchun | 20 000 so'm | 6 000 so'm | 6 000 so'm | |
| Pivo, 1 litr uchun | 6 000 so'm | 2 000 so'm | 2 000 so'm | |

Shu boisdan, import qilinadigan tamaki va alkogol mahsulotlari uchun belgilangan aksiz solig'i stavkalarini mamlakatimiz hududida ishlab chiqariladigan tamaki va alkogol mahsulotlari aksiz solig'i stavkalariga muvofiqlashtirish orqali bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Buning natijasida, JST imkoniyatlari qo'llanilishi ortidan mamlakatimiz savdo ko'lami kengayadi, teng raqobat muhiti yaratilishi hisobiga mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'z ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni kuchaytiradi, JSTga a'zo davlatlar tomonidan tovarlarimizga nisbatan belgilangan diskriminatsiyaning bekor qilinishi natijasida ushbu tovarlar eksport hajmi oshadi. Davlat byudjeti daromadlari dastlabki davrlarda kamayishi mumkin, ammo savdo hajmi oshishi hisobiga o'rta va uzoq muddatdan keyin ko'p miqdorda aksiz solig'i undirilishiga olib keladi.

2017–2023-yillarda import tovarlaridan undirilgan bojxona to'lovlari va ular bo'yicha berilgan imtiyozlar ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlil qilindi.

Umumiy statistik tahlilga ko'ra, 2017–2023-yillar davomida respublika bo'yicha import hajmi o'rtacha yillik hisobda 24 619,1 mln AQSh dollarini, undirilgan bojxona to'lovlari hajmi o'rtacha 2 619,9 mln AQSh dollarini, bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar hajmi esa o'rtacha yillik qariyb 4 679,5 mln AQSh dollarini tashkil etganligi kuzatilgan.

¹⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

Descriptive Statistics

| Variable | Obs | Mean | Std. Dev. | Min | Max |
|----------------|-----|------------|-----------|----------|----------|
| Y | 7 | 24 619,129 | 8 091,692 | 13 013,4 | 38 141,2 |
| x ₁ | 7 | 2 619,914 | 1 404,613 | 934,5 | 4 700,0 |
| x ₂ | 7 | 4 679,486 | 1 103,546 | 3 520,7 | 6 267,1 |

Shu davrda mazkur ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, eng yuqori o'sish tendensiyasi import hajmi (kvadratik chetlanish 8 091,7) hamda undirilgan bojxona to'lovlari (k.ch. 1 404,6) hissasiga to'g'ri kelgan.

Ma'lumki, mamlakatga qilinayotgan import o'z navbatida mamlakat eksport hajmini oshirishga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Import hajmi (y) ga esa importdan undirilayotgan bojxona to'lovlari (x_1 , ya'ni, import boji, aksiz va QQS soliqlari hamda bojxona yig'imlari) hamda import bojxona to'lovlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar (x_2) bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu boisdan, ushbu natijaviy omil (y) va unga ta'sir qiluvchi omillar (x_n) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'p omilli chiziqli regressiya modeli orqali quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \varepsilon \quad (1)$$

bu yerda: a_0, a_1, a_2 – modelning noma'lum parametrlari, ε – tasodifiy xatolik.

Ko'p omilli chiziqli regressiya modelining noma'lum parametrlari (a_0, a_1, a_2) eng kichik kvadratlar usuli asosida aniqlanadi. Buning uchun esa quyidagicha normal tenglamalar sistemasi tuzib olinadi:

$$\begin{cases} a_0n + a_1\sum x_1 + a_2\sum x_2 = \sum y \\ a_0\sum x_1 + a_1\sum x_1^2 + a_2\sum x_2x_1 = \sum yx_1 \\ a_0\sum x_2 + a_1\sum x_1x_2 + a_2\sum x_2^2 = \sum yx_2 \end{cases}$$

Tuzilgan model approksimatsiya xatolik, o'rtacha kvadratik standart chetlanish, t-statistika, determinatsiya koeffitsiyenti, Fisher mezon, Darbin-Uotson testi kabi mezonlar bo'yicha baholanadi va model asosida xulosalar ishlab chiqiladi.

Buning uchun avvalo, natijaviy omil (y) va omillar (x_1, x_2) o'rtasidagi bog'lanish darajasi va turi korrelyatsion tahlil asosida aniqlanadi. Ya'ni, juft korrelyatsiya matritsasi tuzib olinadi.

Matrix of correlations

| | (1) | (2) | (3) |
|----------|-------|--------|-------|
| Variable | | | |
| s | | | |
| (1) y | 1.000 | | |
| (2) x1 | 0.946 | 1.000 | |
| (3) x2 | 0.199 | -0.067 | 1.000 |

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, natijaviy omil (y) va ta’sir etuvchi barcha omillar (x_1 , x_2) o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish mavjudligi aniqlandi. Ammo, natijaviy omil (y) va (x_1) omili o‘rtasida zich to‘g‘ri korrelyatsion bog‘lanish ($r_{yx_1} > 0,80$) (ya’ni, multikollinearlik mavjudligi), shuningdek (y) va (x_2) omil o‘rtasida esa kuchsiz to‘g‘ri korrelyatsion bog‘lanish ($r_{yx_2} < 0,80$) mavjudligi aniqlandi.

Ma’lumki, modelga ikki yoki ortiq zich chiziqli korrelyatsion o‘zaro bog‘langan omillar kiritilsa, u holda regressiya tenglamasi bilan bir qatorda boshqa chiziqli bog‘liqlik vujudga keladi, Ya’ni, multikollinearlik hodisasi kuzatiladi va bu regressiya koeffitsientlari miqdorini buzib ko‘rsatadi hamda ularning iqtisodiy talqinini qiyinlashtiradi. Biroq, yuqoridagi modelda zich korrelyatsion bog‘lanishga ega bo‘lgan omil bitta bo‘lganligi sababli, modellashtirish jarayonini davom ettirish mumkin.

Modellashtirishning ushbu bosqichi “Stata” dasturi orqali amalga oshirildi.


| Source | SS | df | MS | Number of obs | = | 7 |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model | 378740821 | 2 | 189370411 | F(2, 4) | = | 53.68 |
| Residual | 14112094.4 | 4 | 3528023.59 | Prob > F | = | 0.0013 |
| | | | | R-squared | = | 0.9641 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.9461 |
| Total | 392852916 | 6 | 65475486 | Root MSE | = | 1878.3 |

| y | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] | |
|-------|----------|-----------|-------|-------|----------------------|----------|
| x1 | 5.551389 | .5471451 | 10.15 | 0.001 | 4.03227 | 7.070507 |
| x2 | 1.930546 | .696416 | 2.77 | 0.050 | -.0030148 | 3.864107 |
| _cons | 1041.004 | 3715.181 | 0.28 | 0.793 | -9273.991 | 11356 |

$y = 1041,004 + 5,551389 x_1 + 1,930546 x_2$ model tuzib olindi.

Tuzilgan model determinatsiya koeffitsient ($R^2 = 0,96$) bo'yicha ishonchlilik darajasi o'rtacha, Fisher mezoni ($F = 53,68$) bo'yicha model statistik jihatdan ahamiyatli, t-statistika mezoni bo'yicha esa modelga kiritilmagan boshqa omillarning o'rtacha ta'siri (cons) bo'yicha olingan gepoteza ($t_{a_0} = 10,15$) hamda y ga x_2 omilning miqdoriy ta'siri bo'yicha olingan gepoteza ($t_{a_2} = 0,28$) statistik jihatdan ahamiyatsiz, ammo, y ga x_1 omilning miqdoriy ta'siri bo'yicha olingan gepoteza ($t_{a_1} = 2,77$) statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi.

Demak, modelga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish chiziqsiz bog'lanishdir. Buni quyidagi grafikda ham kuzatish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Import mahsulotlar hajmi, undirilgan to'lovlar va berilgan imtiyozlarning o'zgarish tendensiyasi grafigi¹⁸

Grafiklardan ham ko'rinib turibdiki, import bo'yicha undirilgan to'lovlar tendensiyasi chiziqli, ammo, import mahsulotlar hajmi va unga berilgan imtiyozlarning o'zgarish tendensiyalari chiziqsiz ekanligi kuzatildi.

Bundan kelib chiqadiki, natijaviy omil (y) va unga ta'sir qiluvchi omillar (x_n) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'p omilli chiziqsiz regressiya modeli asosida quyidagi ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiq:

$$y = a_0 x_1^{a_1} x_2^{a_2} + \varepsilon \quad (2)$$

Ushbu ko'p omilli chiziqsiz regressiya modelining noma'lum parametrlari

(a_0, a_1, a_2) ham eng kichik kvadratlar usulida aniqlanadi. Buning uchun tenglama har ikkala tomoni ham logarifmlanib, chiziqli ko'rinishga keltirilib, parametrlar aniqlanadi.

¹⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

| Source | SS | df | MS | Number of obs | = | 7 |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| | | | | F(2, 4) | = | 68.06 |
| Model | .687218981 | 2 | .343609491 | Prob > F | = | 0.0008 |
| Residual | .020193956 | 4 | .005048489 | R-squared | = | 0.9715 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.9572 |
| Total | .707412938 | 6 | .117902156 | Root MSE | = | .07105 |

| lny | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] | |
|-------|----------|-----------|-------|-------|----------------------|----------|
| lnx1 | .5482745 | .0495048 | 11.08 | 0.000 | .4108271 | .6857219 |
| lnx2 | .4170761 | .1234562 | 3.38 | 0.028 | .0743066 | .7598455 |
| _cons | 2.307962 | 1.099481 | 2.10 | 0.104 | -.7446857 | 5.360609 |

Hamda quyidagi model tuzib olindi.

$$y = 10,05391 x_1^{0,5482745} x_2^{0,4170761}$$

Tuzilgan model determinatsiya koeffitsienty ($R^2 = 0,97$) bo'yicha ishonchlilik darajasi o'rtacha, Fisher mezoni ($F = 68,06$) bo'yicha model statistik jihatdan ahamiyatli, t-statistika mezoni bo'yicha esa modelga kiritilmagan boshqa omillarning o'rtacha ta'siri (cons) bo'yicha olingan gepoteza ($t_{a_0} = 2,10$) statistik jihatdan ahamiyatsiz, ammo, y ga x_1 va x_2 omillarning miqdoriy ta'siri bo'yicha olingan gepotezalar ($t_{a_1} = 11,08$; $t_{a_2} = 3,38$) statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, tuzilgan model approksimatsiya xatoligi $\bar{A} = 0,43\%$ ($\bar{A} \leq 7,0\%$) kichik (qabul qilingan qiymat) hamda o'rtacha kvadratik standart chetlanish $S_y = 0,0711$ kichik (qoniqarli) ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, importdan undirilayotgan bojxona to'lovlari (x_1) hamda import bojxona to'lovlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlar (x_2) 1 birlikka o'zgarganda import hajmi (y) mos ravishda qariyb 0,6 va 0,4 birlikka (to'g'ri bog'liqlikda) o'zgarishi mumkin.

Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari: bojxona to'lovlari va imtiyozlari, import-eksport hajmlari, inflyatsiya darajasi hamda valyuta kurslari kabi muhim omillar chuqur tahlil qilinib, "Stata" dasturi yordamida mamlakat tashqi tovar eksporti va importi, undiriladigan bojxona to'lovlari va imtiyozlari prognoz qilindi (6-jadval).

Tashqi tovarlar importi va eksporti hamda bojxona to'lovlari undirish va imtiyozlar berish hajmining prognoz ko'rsatkichlari¹⁹

| Yil | Tashqi tovarlar importi (mln AQSh dollari) | Tashqi tovarlar eksporti (mln AQSh dollari) | Bojxona to'lovlari (mln AQSh dollari) | Bojxona imtiyozlari (mln AQSh dollari) |
|------|---|--|--|---|
| 2024 | 38 200,5 | 19 940,2 | 4 950,2 | 4 950,1 |
| 2025 | 41 575,4 | 21 120,8 | 5 250,6 | 5 150,4 |
| 2026 | 45 200,8 | 22 455,2 | 5 600,9 | 5 400,3 |
| 2027 | 49 125,2 | 23 980,4 | 6 000,3 | 5 700,5 |
| 2028 | 53 350,9 | 25 700,7 | 6 450,7 | 6 050,8 |
| 2029 | 57 900,2 | 27 630,8 | 6 950,2 | 6 450,1 |
| 2030 | 62 775,5 | 29 780,9 | 7 500,7 | 6 900,4 |

Bojxona imtiyozlari miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi inflyatsiya darajasi va valyuta kurslarining doimiy o'zgarishi iqtisodiy tizimda murakkab va vaqtinchalik ta'sirlarni yuzaga keltiradi. Ushbu o'zgarishlarni tahlil qilishda Vektoral Avtoregressiya (VAR) modeli samarali vosita hisoblanadi, chunki u o'zgaruvchilar o'rtasidagi vaqtinchalik bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'zgaruvchilar orasidagi o'zaro ta'sirni aniqroq ko'rsatadi va iqtisodiy tizimdagi dinamikani tushunishga yordam beradi. Shuning uchun VAR modeli to'g'ri va ishonchli metod hisoblanadi.

VAR modeli asosida olingan prognozlar 2024-2030-yillarda tashqi tovarlar importi va eksportining o'sishini, bojxona to'lovlari va imtiyozlarining ortishini ko'rsatadi. Eksport va import hajmlarining o'sishi iqtisodiyotning rivojlanishini anglatadi, lekin importning eksportga nisbatan yuqori sur'atda o'sishi tashqi savdo defitsitining davom etishini ta'kidlaydi. Bu esa, Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan 2030-yilga borib, eksport miqdorini 45 mlrd AQSh dollaridan oshirish vazifasini amalga oshirish uchun strategik chora-tadbirlar ko'rilishi lozimligini ko'rsatadi.

XULOSA

"Mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda bojxona to'lovlari va imtiyozlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining jadallashib borilishi sharoitida uning eksport va import salohiyatini oshirishda mamlakat iqtisodiyotining jahon hamjamiyati bilan takror ishlab chiqarish jarayonlariga to'sqinlik qilmaydigan hamda tahdidlar xavfini keskin kamaytirishga imkoniyat beradigan boj siyosatini o'zaro uyg'unlashtirish shart-sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. Bugungi kunda eksportni rivojlantirish mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiya

¹⁹ VAR (Vector Autoregression) modeli asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Eksport tarkibini diversifikatsiyalash, geografiyasini kengaytirish, uning tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh tovarlar ulushini doimo oshirib borish eksport-import salohiyatini oshirishning asosiy omilidir. Shu sababli, eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bojxona to'lovlari va imtiyozlari bo'yicha yaratilgan davlat tizimini doimo takomillashtirib borish kerak.

3. O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirish maqsadida mamlakatimizga import qilishda bojxona bojidan ozod etiladigan yurtimizda ishlab chiqarilmaydigan eng zamonaviy texnologik asbob-uskunalar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

4. Davlat bojxona xizmati tomonidan bojxona qonunchiligining buzilishini bartaraf etish, respublikamiz hududiga tovarlar va kontrafakt mahsulotlarining noqonuniy olib kirilishining oldini olish, bojxona to'lovlarining davlat byudjetiga to'liq tushishini ta'minlash, bojxona sohasidagi korrupsiyani bartaraf etish uchun bojxona xizmatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajalari o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik mavjuddir. Shuning uchun milliy to'lovlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashda boj tarifini qo'llash bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish katta ahamiyatga egadir.

6. Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berishda ichki va tashqi bozorlarda, imtiyoz berilayotgan tovarlar va xizmatlar bo'yicha marketing izlanishlarini olib borish lozim. Aks holda ichki bozorda sog'lom raqobatga putur yetkazilishi, chetdan esa mamlakatimiz sharoitida samara bermaydigan texnika va texnologiyalar olib kinishi mumkin.

7. Bojxona to'lovlari va imtiyozlarini qo'llashda JST, JBT va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalari asosida takomillashtirishda raqamli iqtisodiyot doirasida zamonaviy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bojxona organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash maqsadida keng joriy etish muhim ahamiyatga egadir.

8. Bojxona bojlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlarning chuqur tahlil qilinishi va ushbu munosabatni tartibga soluvchi yangi qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi munosabati bilan, oldin amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarning tegishli qismlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mexanizmining to'liq ishlashini ta'minlash, bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlarning monitoringini o'tkazishni biror-bir vakolatli organga vazifa qilib yuklash kerak.

9. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bilan eksport tarkibidagi murakkab mahsulotlar ulushining oshishi mamlakatning raqobatbardoshligini

sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayon uzluksiz texnologik rivojlanish, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va malakali ishchi kuchining rivojlanishini talab qiladi. Import qilinayotgan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari va ular bo'yicha imtiyozlarni belgilashda ularning stavkalarini mamlakat eksport salohiyatining oshirilishiga ta'sir darajasidan kelib chiqqan holda differensiallashtirish maqsadga muvofiqdir.

10. Ishlab chiqarishda resurslar yetishmasligini kamaytirish va eksportda xomashyo ulushini qisqartirib, murakkab mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida xom-ashyo mahsulotlari uchun eksport bojlarini joriy qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МИРЗАЕВ ЗАКИР АБДУЛЛАЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ И ЛЬГОТ В ПОВЫШЕНИИ
ЭКСПОРТНОГО И ИМПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАНЫ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2023.4.PhD/Iqt3496.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно - образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Махмудов Насир Махмудович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Алимардонов Ильхом Музrabшохович**
доктор экономических наук, профессор

Хусанов Дурбек Нишонович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете "___" _____ 2025 г. в _____. Адрес: г. Ташкент, ул. И. Каримова. Тел.: (998) 99 988 60 31

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под No ____). Адрес: г. Ташкент, ул. И. Каримова. Тел.: (998) 99 988 60 31

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2025 г.

(реестр протокола рассылки No ____ от "___" _____ 2025 г.).

С.У. Мехмонов

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

С.К. Худойкулов

Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой экономике эффективное использование таможенных пошлин и льгот выступает важным экономическим рычагом в повышении экспортно-импортного потенциала стран. Установление таможенных платежей на логически обоснованном уровне, наряду с защитой внутреннего рынка от конкуренции, создаст стимулирующую среду для экспортеров при выходе на внешние рынки. В то же время таможенные льготы, предоставляемые для импорта, повышают конкурентоспособность национальной экономики, обеспечивая ввоз по доступным ценам современных технологий, сырья и комплектующих в производственных отраслях. Благодаря таким инструментам страны смогут улучшить свой внешнеторговый баланс, стабилизировать инвестиционный климат и активно участвовать в глобальных цепочках добавленной стоимости. Льготы по таможенным платежам могут привести к краткосрочному сокращению доходов бюджета. Однако закупка современной техники и технологий, а также сырья на основе таможенных льгот приведет к внедрению и запуску новых инновационных производственных мощностей, увеличению объемов экспорта товаров с высокой добавленной стоимостью и диверсификации их состава и географии. Это в перспективе, наряду с увеличением валютных поступлений и доходов государственного бюджета, даст возможность дальнейшего улучшения социально-экономических показателей.

Исследования, проводимые в мировом масштабе по совершенствованию механизма использования таможенных платежей и льгот для повышения экспортно-импортного потенциала стран, в первую очередь направлены на создание моделей структурных реформ, направленных на либерализацию торговых потоков и обеспечение конкурентоспособности. В качестве приоритетных направлений особое значение приобретают комплексные анализы по внедрению концепции "smart customs", автоматизации торговых процессов через цифровые таможенные платформы, использованию искусственного интеллекта при классификации и оценке товаров, а также оценке макроэкономического воздействия таможенных преференций. Также актуальны исследования по регулированию таможенных льгот в рамках торговых соглашений, развитию системы "зеленого коридора" (green corridor) для экспортеров и облегчению интеграции субъектов малого бизнеса во внешний рынок.

В настоящее время актуальным является исследование вопросов совершенствования системы таможенных платежей и льгот по ним, направленных на повышение экспортно-импортного потенциала, защиту национальных интересов (в том числе с точки зрения обеспечения экономической безопасности) в Узбекистане путем приведения законодательных основ регулирования внешней торговли в соответствие с международными требованиями и стандартами. Как отмечалось в Послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 20 декабря 2022 года:..." На сегодняшний день в мире происходящие острые процессы, сложная геополитическая ситуация,

усиливающийся дефицит энергоресурсов, растущая потребность в продовольствии и удорожание финансовых ресурсов..."²⁰ требуют совершенствования механизмов использования таможенных платежей и льгот, предоставляемых по импорту, для расширения состава и географии экспорта продукции путем переоснащения ведущих отраслей промышленности нашей страны, производственных процессов современной техникой и технологиями, адаптируя их к изменяющимся внешним и внутренним условиям. Это открывает широкие коммерческие возможности для экономики нашей страны и способствует росту экспортно-импортного потенциала, являющегося движущей силой экономического развития. Наличие этих вопросов свидетельствует о необходимости проведения системных научных исследований, направленных на совершенствование механизма использования таможенных платежей и льгот в повышении экспортно-импортного потенциала нашей страны.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-85 от 3 июня 2024 года "Об очередных мерах по дальнейшему ускорению рыночных реформ и приведению национального законодательства Республики Узбекистан в соответствие с соглашениями Всемирной торговой организации", № УП-158 от 11 сентября 2023 года "О Стратегии "Узбекистан-2030", № УП-60 от 28 января 2022 года "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы", а также в других нормативно-правовых документах, касающихся дальнейшего расширения структуры экспорта и импорта страны, торговых отношений.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Уровень понимания проблемы. Исследованием теоретических и практических основ использования таможенных платежей и льгот в повышении экспортно-импортного потенциала страны, совершенствованием механизмов их применения занимался ряд зарубежных ученых и исследователей, в том числе С.Л.Брю, К.Р.Макконнелл, Б.Олин, М.Э.Портер, Э.Д.Халеванская, Е.В.Вавилова, В.Ю.Гречков, Ю.М.Ростовский, А.П.Киреев, В.Г.Драганов, В.Г.Свинухов, Е.Е.Костик, В.А.Тихонович, Е.С.Лосева, А.А.Яковлева, Р.Р.Ахмедзянов, В.В.Горшаков, И.В.Шарошенко, Т.В. Дорожин, К.Р.Татарченко²¹,

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

²¹ С.Л.Брю, К.Р.Макконнелл-Экономикс: принципы, проблемы и политика// В 2-х томах. Пер. с англ.-М./1991-799 с.; Б.Олин-Межрегиональная и международная торговля// М.: -1993 г. -385 с.; М.Е.Портер-Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. Пер. с англ. - М.:Международные отношения, 1993 г.- 896 с.; Е.Д.Халеванская, Е.В.Вавилова-Всемирная торговая организация и российские интересы// -М.: Магистр, 2009. -367 с.; В.Ю.Гречков, Ю.М.Ростовский-Внешекономическая деятельность: учебник – 3-е изд. перераб. и доп. –М.: Магистр, 2008 -591 с.; А.П.Киреев-Международная экономика// В двух частях, М.:«Международные отношения», 2002 г. -415 с.; В.Г.Драганов-Основы таможенного дела//Учебник,- М.: Экономика, 1998г. -687 с.; В.Г.Свинухов-Таможенно-тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности.// Учебное пособие. М.: Экономист, 2004г., -455 с.; В.В.Горшаков, И.В.Шарошенко-Методика

а также отечественные экономисты и исследователи Р.О.Алимов, А.Ф.Расулов, А.М.Кадилов, З.Д.Адилова, А.В.Вахабов, А.С.Джураев, Н.М.Махмудов, И.А.Расулова, Р.Р.Назарова, С.А.Арипов, С.А.Тошматов, С.К. Худойкулов. Этому посвящается Ф.Г.Шарипову, Т.Н.Пардаеву, З.Х.Маккамову, А.А.Шадманкулову, Ш.О.Азизову, Ф.О.Мухаматкулову, А.Б.Сейтмуратову²².

